

TA'LIM SOHASIDA TEXNOLOGIYANING O'RNI

Karimova Umida Ozodovna

Xorazim viloyati Shovot tumani 31-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi maqolamizda Ta'lrim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta'limi texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so'z yuritilib, ularga turlichal talqin va ta'riflar berilishi, . Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani darslarida tarkib topishi

Kalit so'zi; Texnologiya, ish tajribasi , Germaniya va Rossiya maktablari, avtomatik-mexanizatsiyalashgan, modernizatsiya .

Аннотация: В сегодняшней статье мы содержим технологии, педагогические технологии, технологические подходы, технологические подходы, технологические подходы, технологические подходы, технологическую подготовку, разговор о различных интерпретациях и определениях. Основные навыки специальных навыков деятельности, действующих в области производства, собираются в области технологий в общих средних школах

Ключевое слово; Технологии, опыт работы, немецкие и российские школы, автоматическая и модернизация.

Annotation: In today's article, we article contains technology, pedagogical technologies, technological approaches, technological approaches, technological approaches, technological approaches, technological approaches, technological approaches, technological training, talk about various interpretations and definitions,. The primary skills of specialty skills of activities operating in the field of production are being compiled in the field of technology in general secondary schools

Keyword; Technology, work experience, German and Russian schools, automatic and modernization.

Ta’lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta’limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so’z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta’riflar beriladi. Avvalo «texnologiya» so’zining ma’nosini bilish maqsadga muvofiq. «Texnologiya» so’zining grek tilidan tarjimasi tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo’lsa kerak, ba’zida uni «texno» -hunar yoki san’at, «logos» -fandeb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san’ati haqidagi fan sifatida e’tirof etishadi. Shu nuqtai nazarda, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta’limi» o’quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta’lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq. Texnologiya fani vauni o’qitish metodikasi ta’lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg’or o’qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beraladi. O’quvchilarni amaliy mehnatga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko’nikmalarini egallashlarini ta’minlaydi. Texnologiya ta’limining tarbiyaviy ahamiyati o’quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o’quvchilarning aqliy o’sishida eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O’quvchilar o’rtasida yo’lga qo’yilgan o’zaro yordam esa, ularda do’stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Texnologiya ta’limi fanining uzlusiz ta’lim tizimidagi o’rni va roli.^[1] Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga ya’ni yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan avtomatik-mexanizatsiyalashgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o’tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o’rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang’ich ko’nikmalari aynan umumiyl o’rtalim maktablarida texnologiya fani darslarida tarkib topadi. “Texnologiya” materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishslash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandir.

“Texnologiya” - yunoncha ikki so‘zdan - “texnos” (techne) - mahorat, san’at va “logos” (logos) - fan, ta’limot so‘zlaridan tashkil to’gan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, “Texnologiya” fani ham qadimgi Yunonistonda ‘aydo bo‘lgan. Ushbu davrda, bu hunarmandning buyumlarni tayyorlash san’atiga, ustozи rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o‘zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatgan. Hunar o‘rganish individual tarzda amalga oshirilar edi. Ko‘gina hollarda, hunar sirlari, faqat avloddan avlodga, oilaviy qarindosh urug‘larga o‘rgatilar edi. Avloddagi uzilishlar, ma’lum bir kasb sirlarini yo‘qolishiga olib kelgan hollar ham mavjud. Misol tariqasida, qadim Sharqdagi machit madrasalarning tashqi va ichki devorlar, gumbazlaridagi naqshlar tabiiy bo‘yoqlarining tayyorlanish sirlari yo‘qolib ketganini keltirish mumkin. Bu bo‘yoqlar hanuzgacha odamlarni o‘zining tabiiyligi, chiroyi, ranglari jilosi, takrorsizligi, o‘zidan nur sochib turishi, uzoqqa chidamliligi bilan maftun etib kelmoqda.

“Texnologiya”ning fan sifatida vujudga kelishiga - XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo‘lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o‘q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojiana boshlanishi sabab bo‘ldi. Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda - xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishslash yo‘llari va usullarining murakkab jarayonlarini o‘zaro bog‘liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo‘lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo‘ldi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma’lum ishni bajarish san’ati tushuniladi.^[2] Uni egallah uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o‘rganish taqozo etiladi. “Texnologiya”ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko‘paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi. Texnologiya deganda sub’ekt tomonidan ob’ektga ko‘rsatilgan ta’sir natijasida ob’ektda sifat o‘zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob’ektga yo‘naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda

tutadi. Ushbu tushunchalarni o‘quv jarayoniga ko‘chiradigan bo‘lsak, o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi (o‘quvchi)larga muayyan sharoitlarda ko‘rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta’riflash mumkin. Texnik texnologiya quyidagilarni bildiradi: xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni olish, ularga ishlov berish yoki qayta ishslash yo‘lari va usullarining yig‘indisi (texnologiyaning jarayonli - bayonli aspekti); jarayonning o‘zi - qazib olish, to’ish, ishlov berish, qayta ishslash, tashish, omborga joylash, saqlash hamda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish (texnologiyaning jarayonli - harakat as’ekti).

Ishlab chiqarishda “Texnologiya” so‘zidan kelib chiqadigan quyidagitushunchalar ishlataliladi:

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o‘zining ish joyidabajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi

Texnologik xarita - ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarning ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik reja - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqtin, shartlarini belgilaydi. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayoygan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g’inlari

jumlahdan, oliy ta’limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko’nikmalarini shakllantirishni, o‘z ustida ishslash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda.^[3] Bo’lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi “ fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o’rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matlab tilavova.. Texnologiya va uni o`qitish metodikasi
2. <https://uniwork.buxdu.uz/>
3. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. -T.: "TerDU nashr-matbaa markazi", 2020.
4. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. -T.: 2019.